



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

O'roqova Sh. S.

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: interfaol metodlar, yondashuv, individuallik, mazmun, mohiyat, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat.

Ключевые слова: интерактивные методы, подход, индивидуальность, содержание, сущность, знания, умения, навыки, способности.

Key words: interactive methods, approach, individuality, content, essence, knowledge, skills, competence, ability.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati mavzusining ta'lim sohasida bugungi kunda muhim ahamiyatga egaligi bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ:

Начните с этой статьи; в ней изложена актуальность темы интерактивных методов в развитии интеллектуального потенциала учащихся 1 классов в сфере образования на сегодняшний день.

SUMMARY:

Start with this article the topic of the importance of interactive methods in the development of the intellectual potential of students of the 1st class is described as important today in the field of Education.

Kirish. Taraqqiyot jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda biz oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari oldiga qo'ygan barkamol avlodni voyaga yetkazish vazifasi ortib bormoqda. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Yurtboshimiz Miromonov Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: "Har qaysi davlat, har qaysi millat intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir". Shunday ekan, avvalo, intellekt so'zining ma'nosi nimada ekanligiga to'xtalib o'tsak. Intellekt (lotincha: intellects - bilish, tushunish, idrok qilish) - insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va



o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellect tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va hokazo psixik jarayonlar kiradi. Intellectning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellect saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Vatanimiz O'zbekistonda intellektual salohiyatni yanada rivojlantirishga nasliy asos bor. Ya'ni tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyoda faqat O'zbekistonda yashab, irod qilgan allomalimiz al-Xorazmiy, al-Buxoriy, al-Farg'oniy, Ali Abu ibn Sino, Ulug'beklar tomonlaridan yaratilgan va butun dunyo-insoniyat tan olgan fundamental fanlar bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Ular tomonidan yaratilgan matematika, astronomiya, tibbiyot, fizika, tabiiy fanlar, qonunshunoslik hamda falsafa kabi fundamental fanlar asrlar davomida insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. Davlatimiz rahbari ushbu muammoga alohida e'tibor qaratib, Oliy Majlisga murojaatnomasida "... tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab, oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik". Shuningdek, Murojaatnomada maktablarning o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish, oliy ta'lim standartlarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish hamda mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini 2 barobarga qisqartirish kabi vazifalar belgilab berildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston yoshlari – bolalarimizning ilmiy salohiyatga moyilligi, ongli tafakkuri va aql-idroki hamda fikrlashi boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini alohida ta'kidlash mumkin. Buni butun dunyo tan olgan buyuk allomalimiz yurti O'zbekiston bo'lganligi uchun nasliy omil desak xato bo'lmaydi. Ushbu holatni mustaqillik yillarida yoshlarimiz xalqaro darajadagi ko'plab tanlovlarda o'zlarining yutuqlari bilan asoslab berdilar. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 10-sentyabr kuni Toshkent shahridagi Prezident maktabiga tashrif chog'ida pedagoglar bilan muloqotida "... men sizlarga eng katta boyligimni ishonib topshiryapman. Bolalarimizning ko'zini, bilimini, g'urur-iftixorini ko'rib, yo'limiz to'g'ri ekaniga ishonch hosil qildim. Islohotlarimizga, farzandlarimiz tarbiyasiga yelkadosh bo'lganingiz uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman" – deya ta'kidlagan edilar. Aksariyat ota-onalar farzandlarining qobiliyatidan, qaysi fanni yaxshi ko'rishi, yaxshi o'zlashtirishidan

qat'i nazar ularning kasb tanlashini cheklab qo'yishadi. Farzandi fundamental fanni qiziqib, yaxshi o'qib, o'zlashtirgan bo'lsa ham ba'zi ota-onalar o'z farzandining qobiliyatini, imkoniyatini inobatga olmasdan – sen shifokor yoki ITI sohasidagi kasbga ega bo'lasan deb bolaning taqdirini hal qilishadi. Bu albatta bolaning intellektual salohiyatidan amalda to'liq foydalanish nuqtayi nazaridan salbiy holatdir. Tan olish kerak, ushbu sohaga yetarlicha e'tibor bermaymiz. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jismoniy mehnat bilan shug'ullanadiganlarning o'zini ovqatlanish ratsioni, aqliy mehnat sohasida faoliyat ko'rsatuvchilarning o'z ratsioni bo'lishi lozim. Buyuk mutakkir bobomiz Abu Ali Ibn Sino o'zlarining hayotiy tajribalarini "Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak" degan g'oya yotadi. Ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik; ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish; olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish qitishni jismoniy mashqlar bilan rivojlantirib boriladi. Bu talablar Hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining «Tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» («Omo'zish va parvarish madrasa farzand») bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi. Allomaning ushbu hayotiy tajribalari o'z ahamiyati saqlagan holda "Interfaol" metodlardan foydalangan holda an'anaviylikka bog'lanib qolmasdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning eng so'nng yangiliklari asosida berib borishlarini bildiradi. Boshlang'ich ta'lim darslarini o'qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish ulardan tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim[3]. Ular quyidagilardan iboratdir:- boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;

- boshlang'ich ta'lim darslari pedagog xodimlari o'rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish;

-ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirishga erishish; O'qituvchi darslarni yanada samarali tashkil etish uchun ham bu haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Biz quyida maqolamizda



berilgan masaladagi har bir tayanch tushunchalarga ta'rif berib o'tamiz. Interfaol – ingliz tilida interact (rus tilida interaktiv) ifodalanib lug'aviy nuqtai nazardan “inter” o'zaro ikki taraflama “act”-harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim[2]. Metod (yunoncha metados – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) voqelikni amaliy va nazariy egallash, izlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l - yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli[3].

birinchidan, o'qitish usuli, o'qish faoliyati usullari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi;

ikkinchidan, maqsadlarga erishishda o'qituvchi o'quvchi o'z aslini topishi shart ekanligiga;

uchinchidan, o'quvchilarning yosh, individual psixologik xususiyatiga;

to'rtinchidan, mavzularning izchilligi va tizimlilikini hisobga olganlikka etibor beradi. Yuqorida ta'kidlab ko'rsatib o'tilgan talablar pedagogik texnologiyaning interfaol usullarida o'z aksini topgan. Boshlang'ich sinflarda samarali darslarni tashkil etish uchun bir qancha interfaol metodlarni ko'rib chiqamiz. Bulardan: “Alifbe”, “Aqliy hujum”, “Yalpi fikriy hujum”, “Qarorlar shajarasi”, “Zig-zag”, “6x6x6”, “Qora quti”, “Bilaman bilishni hohlayman”, “Bilib oldim”, “Klaster”, “Bumerang”[3] kabi metodlardir. Talim jarayoniga bu metodlarni qo'llash: - o'quvchining muayyan nazariy bilimlar puxta o'zlashtirishga;

- vaqtning tejalishiga;

- har bir o'quvchining faollikka undalishida;

- o'quvchining erkin fikrlash layoqatini shakllanishiga;

- o'quvchida o'zgalarning fikrini tinglay olish ko'nikmasining hosil bo'lishiga;

- o'quvchining o'z fikrini himoya qila olishiga;

- o'quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko'nikmasini shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, Bumerang metodi- berilgan materialni ta'lim oluvchilarning kichik guruhlarda mustaqil o'rganishga va boshqalarni o'rgatishga yo'naltirilgan metod hisoblanadi. Metodni qo'llash ketma-ketligi:

1. Metodni kichik guruhlarda o'tkazish mumkin, 3-4-sinflarda;

2. Har bir kichik guruhlariga alohida tarqatma materiallar tarqatiladi;

3. Material mustaqil o'rganiladi;

4. Guruh a'zolarini mashg'ulot o'tkazishga tayyorlash(mustaqil o'rganishga va o'rgatishga);

5. masala yuzasidan xulosaga kelish;

6. baholash[3];

Bu metodda bolalar bilan guruh- guruh bo'lib ishlash hamda ular past o'zlashtiradigan o'quvchilar ham darslarni yaxshi o'zlashtira oladi. Har bir guruh a'zolari bilan individual shug'ullanadi. Bilmagan guruh a'zolari boshqa o'quvchilarga qarab o'rganadi va egallagan bilimlaridan kelib chiqib mustaqil fikrlay boshlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytmoqchimizki, intellektual salohiyatni shakllantirish uchun har bir boshlang'ich sinf o'quvchilarida interfaol metodlardan samarali qo'llay olish lozim. Hozirgi tezlikda rivojlanib borayotgan davrda an'anaviy ta'lim bilan boshqa mamlakatlar bilan raqobatga kirishib bo'lmaydi. Buni dunyodagi kuchli rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ham ko'rib chiqdik. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasining asosiy vazifalari- jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya berib borishdan iboratdir. Ularga o'rgatilgan har bir yangilikni tez ilg'ab oladi, ongiga singdirib boradi. Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. AI (sun'iy intellekt) atamasi kundalik hayotimizga shiddat bilan kirib kelgan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish lozimligi ushbu maqolaning mazmuni hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Asadov Yu.M. O'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan darsliklarga qo'yiladigan talablar// "Boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalash orqali o'quv-tarbiya jarayoni sifatini va samaradorligini oshirish" mavzusida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari Forumi. Toshkent - 2016.
2. Tabiiy fan- Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik-2021. K. T. Suyarov, Z. Y. Tillayeva, Z. B. Sangirova, M. K. Yuldasheva, M. M. Avezov, M. X. Baymuratova, D. S. Azamatova, M. T. Umaraliyeva, U. E. Alimuhamedova, S. G'. Xasanova, D. T. Hasanova, D. Q. Turdiyeva, N. V. Yusupova, G. A. Pahramova, Sh. M. Ganiyeva
3. Sh. O'roqova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy fanlar misolida intellectual rivojlantirish metodikasi // Tafakkur manzili – 2023. – T. №. 4.–C. 135-138.
4. O'roqova S. S. Intellectual Development Of Primary Class Students In The Educational Process Based On Individual Approach-Social Pedagogical Need //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2024. – T. 11. – №. 04. – C. 3-7.
5. Shabbazova, D. (2023). Psychological-pedagogical factors of improving the literacy of elementary school students based on a personal value approach. *Academia Science Repository*, 4(05), 12-19.
6. Ruzikulovna, Shabbazova D. "The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes." *JournalNX*, vol. 7, no. 11, 2021, pp.
7. Norbo'tayev, X. B., & O'roqova, S. S. (2023). Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarini tabiiy fanlar misolida intellektual rivojlantirish metodikasi. *Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar*, 1(5), 733-736.
8. Raupova, S. A. (2023). Using timss elements in teaching natural sciences in primary classes. *World of Scientific news in Science*, 1(2), 69-74.
9. Norbotaev Khoshbok, and Avazbek Juraev. "Improving primary class lessons based on media teaching methodology." *World Bulletin of Social Sciences* 16 (2022): 43-47.